

**QORA ANDIZ O'SIMLIGINI ILDIZI TARKIBIDAGI MINERAL
ELEMENTLARINI MIQDORINI ANIQLASH
(UZUMNI QURITIB MAYIZ TAYYORLASHNI OMMALASHGAN USULLARI)**

Xushvaqtov A. A.

Qazqiston Respublikasi Akademik A.Quatbekov nomidagi Xalqlar Dustligi Universitetining kimyo fakulteti ikkinchi bosqich talabasi.160000, Chimkent Tolebi kuchasi, 32 tel/faks 8 (7252)- 95-25-02, 95-25-72. e-mail: info@kipudn.kz Universitet veb-sayti. www.kipudn.kz

Xushvaqova M. A.

Qazqiston Respublikasi Akademik A.Quatbekov nomidagi Xalqlar Dustligi Universitetining kimyo fakulteti ikkinchi bosqich talabasi.160000, Chimkent Tolebi kuchasi, 32 tel/faks 8 (7252)- 95-25-02, 95-25-72. e-mail: info@kipudn.kz Universitet veb-sayti. www.kipudn.kz

Gaynullaeva O. O.

Navoiy davlat pedagogika institutining biologiyani o'qitish metodikasi kafedrasи

Islomov A. X.

O'zR FA akademik O.S.Sodiqov nomidagi bioorganik kimyo instituti, e-mail: islomov-72@mail.ru ,

Muqimov Sh. X

Navoiy davlat pedagogika institutining biologiyani o'qitish metodikasi kafedrasи

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Navoiy viloyati Xatirchi tumanida o'sadigan Inula helenium L doruvor o'simligini elementlar tarkibi urganilgan va tibbiyotda ishlatilishlari keltirilgan.

Kalit so'zlari: Inula helenium L.;Inula grandis, antiseptik, balg'am ko'chiruvchi, gjija haydash, inulin, uglevodlar, benzoat kislota, alantolakton, izoalantolakton, digidroalantolakton,

ABSTRACT:

In this article, the composition of elements of the medicinal plant Inula helenium L, which grows in Khatirchi district of Navoi region, and its uses in medicine are presented.

Key words: Inula helenium L.; Inula grandis, antiseptic, expectorant, anthelmintic, inulin, carbohydrates, benzoic acid, alantolactone, isoalantolactone, dihydroalantolactone,

KIRISH

Hozirgi kunda qator oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tekshirish institutlarida, dorivor o‘simliklarni qidirib topish va ular asosida yangi samarali dori vositalari yaratish bo‘yicha keng miqyosda tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bunda mahalliy hom ashylardan tabiiy dori vositalarni ajratib import o‘rnini bosuvchi arzon va sifatli preparat tayyorlash dastlabki hom ashyo bazalarini yaratish ishlari dolzarb ahamiyatga ega. Yangi dori vositalarini yaratishda xalq tabobatining yutuqlaridan samarali foydalanish albatta ijobiy natijalar beradi. SHu ma’noda O‘zbekistonda keng tarqalgan andiz o‘simligi turlari qora andiz-Inula helenium L.; sariq andiz-Inula grandis Schrenk.; astradoshlar Asteraceae (murakkab guldoshlar -Compositae) oilasiga mansub bo‘lib, Kavkaz, O‘rta Osiyo, Moldova, Ukraina, Belorus, Rossiyaning Ovro‘po qismining cho‘l va o‘rmon cho‘l zonasida hamda Farbiy Sibirda, Krasnodar va Stavropol o‘lkalarida hamda Qozog‘iston, O‘zbekistonda nam erlarda, suv bo‘ylarida, o‘tloqlarda va butalar orasida o‘sadi. Andiz turlari tashqi ko‘rinishi bo‘yicha bir-biriga juda o‘xshaydilar. Ularning mahsuloti tarkibida ham bir hil birikmalar bo‘lgani uchun tibbiyotda bir xil kasallikkarni davolashda qo‘llaniladi. SHuning uchun andiz turlarini mahsulotlari birgalikda tayyorlanaveradi.

NAZARIY QISM

Inula helenium L o‘simligini turlari kup yillik o‘t o‘simlik bo‘lib bo‘yi 100-150 sm gacha poyasi bita yoki bir nechta, tik o‘suvchi, sertuk, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi bargi uzun bandli, yirik (barg plastinkasi 50 sm gacha bo‘ladi), ellipssimon yoki cho‘ziq tuxumsimon, o‘tkir uchli, asos qismi tomon toraya boradi. Poyadagi barglari maydaroq, cho‘ziq tuxumsimon, poyaning yuqori qismiga chiqqan sari kichraya boradi. Barg plastinkasi tishsimon qirrali bo‘lib, yuqori tomoni siyrak va qattiq tukli, pastki tomoni esa yumshoq, sertuk. Poyaning yuqori qismidagi barglari bandsiz, pastdagilar esa qisqa bandi bilan poyada ketma-ket o‘rnashgan. Gullari tilla rangda bo‘lib, savatchaga to‘plangan. Savatchalar poya va shoxchalarning yuqori qismida qalqonsimon yoki shingilsimon gul to‘plamini tashkil etadi. Savatchaning o‘rama barglari cherepitsaga o‘xshab joylashgan. Bargchalari tuxumsimon, qayrilgan va juda ko‘p tuklar bilan qoplangan. Savatcha chetidagi gullari sariq, tilsimon, o‘rtadagilar ham sariq, uchma tukli, naychasimon. Gullarning kosacha bargi tuka aylanib ketgan, tojbargi va otaligi 5 tadan, onalik tuguni bir xonali, pastga joylashgan. Mevasi cho‘ziq, to‘rt qirrali, jigarrang yoki qo‘ng‘ir pista.

May, iyul oyidan boshlab, sentyabrgacha gullaydi, mevasi iyul-oktyabr oylarida pishadi. Inula helenium o‘simligini er ustki va ostki qismi (ildizi), er ostki qismi(ildizi)ni maydalangani, 1-rasm [1-5]




1-rasm. *Inula helenium L* o'simligini er ustki va ostki qismi(ildizi), er ostki qismi(ildizi)ni maydalangani,

Inula helenium tayyor mahsuloti turli shakldagi uzun, yo'g'on ildiz va qisqa, yo'g'on hamda ko'p boshli ildizpoyalardan iborat. Ildiz va ildizpoya 2-20 sm uzunlikda, 1-3 sm yo'g'onlikda bo'lib, usti burishgan, kulrang- -qo'ng'ir tusli po'stloq bilan qoplangan. Mahsulotning ichi sarg'ish-oq. Efir moyi turadigan yaltiroq qo'ng'ir rangli joylari bor. Mahsulot mo'rt, ko'ndalangiga tekis sinmaydi. Ildiz va ildizpoyasi o'ziga xos xushbo'y kuchli hid hamda achchiqroq va o'tkir mazaga ega.

Inula helenium mahsulot namligi 13 %, umumiy kuli 10 %, 10 % li xlорid kislotada erimaydigan kuli 4 %, ichi po'k, eskirgan ildizpoya va ildiz, poyaning asos qismi va andizning bashqa qismlari 5 %, ichi qoraygan ildizpoya va ildizlar 5 %, 2 sm dan qisqa bo'lgan ildiz bo'lakchalari (butun, qirqilmagan mahsulot uchun) 5 %, teshigining diametri 7 mm li elakdan o'tmaydigan yirik bo'lakchalar (qirqib maydalangan mahsulot uchun) 10 %, teshigining diametri 0,5 mm li elakdan o'tadigan qismi (qirqib maydalangan mahsulot uchun) 10%, organik aralashmalar 0,5 % va mineral aralashmalar 1% dan ko'p bo'lmasligi kerak.

Inula helenium o'simligini mahsulotning mikroskopik tuzilishi. Sovuq yo'l bilan (suv va glitserin aralashmasida) yumshatilgan ildizni ko'ndalangiga kesib, preparat tayyorlanadi va uni xlormalgidrat eritmasida mikroskop ostida ko'rildi (2-rasm). Ildizning ko'ndalang kesimida ko'p qatorli kulrang-qo'ng'ir tusli po'kak, po'stloq va yog'och qism (ksilema)lar ko'rinadi. Po'stloq parenximasini yirik hujayralardan tashkil topgan. Ikkilamchi po'stloqda lub qismi mayda, guruh- -guruh holidagi hujayralar ko'rinishiga ega. Kambiy qismi yaqqol ko'rinadi. Yog'och qismida ksilemada yirik suv naylari (ayniqsa kambiyaga yaqin joylarda) uchraydi. Po'stloq va yog'och qismlarda dumaloq yoki oval shaklli, yirik, sxizogen tuzilishidagi smola va efir moyi saqllovchi joylar bor. Ularning efir moyi va smola ishlab chiqaruvchi hujayralari yaxshi ko'rinadi.



2-rasm. Andiz ildiziningko‘ndalang kesimi, 1- efir moylik joy; 2- parenxima hujayralari (inulin bilan); 3- kambiy; 4- ksilemaning suv naylari

Inula helenium o‘simligini kimyoviy tarkibida ildiz va ildizpoyasi tarkibida 1-3 % efir moyi, 44 % gacha inulin va boshqa uglevodlar, oz miqdorda alkaloidlar, sırka va benzoat kislotalar hamda saponinlar bo‘ladi. Efir moyi tez qotuvchi kristall massa bo‘lib, o‘ziga xos hid va mazaga ega. Efir moyining kristall qismi – gelenin uchta selinan tipidagi seskviterpen laktonlarining (alantolakton, izoalantolakton va digidroalantolakton) aralashmasidan iborat. Efir moyi tarkibida gelenindan tashqari, oz miqdorda alantol va proazulen ham bor. O‘simlikning er ustki qismi tarkibida 3 % gacha efir moyi, bargida esa alantopikrin deb ataluvchi achchiq modda bo‘ladi.

Inula helenium L o‘simligini tibbiyotda ishlatilishi. Andiz turlarining preparati balg‘am ko‘chiruvchi dori sifatida hamda me’da va ichak kasalliklarida ishlatiladi. Efir moyi antiseptik, gjija haydash xususiyatiga va yallig‘lanishga qarshi ta’sirga ega. Uning gjija haydash xususiyati tarkibida santoninga o‘xshash ta’sir etuvchi moddalar - alantolaktonlar borligiga bog‘liq. Qora andiz ildizpoya va ildizidan allanton dorivor preparati olingan. Allanton mahsulotning seskviterpenlarining yig‘indisi bo‘lib, yallig‘lanishga qarshi, qon tomirlarini mustahkamlovchi va antiseptik ta’sirga ega hamda me’da yara kasalligida yaraning bitishini tezlatadi. [1-5]

Inula helenium L o‘simligini dorivor preparatlari allanton (tabletka holida). hamda ildiz va ildizpoyasi yo‘talga qarshi hamda balg‘am ko‘chirish uchun ishlatiladigan yig‘malar choylar tarkibiga kiradi.

Keyingi yillarda asta-sekin o'simliklar uchun mineral elementlar zarur, degan tushunchalar paydo bula boshlaydi. Bu tushunchaga asos solgan kishilardan biri agronom A.T.Bolotovdir (1770). U tuprokdagi mineral zarrachalar va suv o'simliklari uchun asosiy oziqadir, degan g'oyani ilgari surdi. A.T.Bapotov ug'itlarni tuproqqa solish usullarini ham ishlab chikdi va qishloq xujaligi uchun zarur 53 ta ug'it turi borligini kursatdi. Yu. Libix minimum qonuni va qaytarilish qonunlari" ni taklif etdi. Bu qonunlar bo'yicha tuproqda o'simliklarga zarur mineral elementlar minimumga etmasa, ularning foydasi ham bo'lmaydi. Qaytarilish qonunida esa usimliklar uz hosili bilan tuproqdan qancha mineral modda olsa, urniga shuncha qaytarish zarur, deb tushuntiriladi. Aks holda yildan-yilga tuprok unumдорлиги, demak, xosildorlik ham kamayib boradi. Libixning fikrlari umuman tug'ri. Agrotexnik tadbirlarni tug'ri utkazish va tuproqni mineral elementlar bilan uz vaktida ta'minlash natijasida xosildorlikni oshirib borish mumkin. I.Knop va Yu.Sakslarning 1859 yilda Utkazgan tajribalari xam "gumus nazariyasi" ni inkor kildi. Ularning fikricha, fakat 7 ta element: azot, fosfor, oltingugurt, kaliy, kalsiy, magniy va temir bulsa, usimliklarni suvda ham Ustirish mumkin. Shunday qilib, ular Usimliklarni vegetatsion usullar bilan (tuprok,, suv, qum) Ustirish mumkinligini isbotladilar va mineral oziklanish nazariyasini tasdikladilar. Usimliklarning ildiz orkali oziqlanish g'oyasini P.A.Kostichev, B.B.Dokuchaev, K.K.Gedroys, D.N.Pryanishnikov va boshqa olimlar yanada rivojlantirdilar. [6].

O'simliklar tabiiy muhitdan oz yoki kup miqdorda davriy jadvalda kursatilgan elementlarning hammasini yutish qobiliyatiga ega. Lekin shu elementlardan xozirgacha faqat 19 tasining o'simliklar uchun ahamiyati kattaligi, ularni boshqa elementlar bilan almashtirib bo'lmasligi aniqlangan. Bular uglerod, vodorod, kislorod, azot, fosfor, oltingugurt, kaliy, kalsiy, magniy, temir, marganets, mis, rux, molibden, bor, xlor, natriy, kremniy va kobalt. Shulardan 16 tasi mineral elementlar guruhiga kiradi. Chunki uglerod, vodorod va kislorod o'simlikka C02, O2 va N2O holida qabo'l qilinadi. O'simliklar suv va barcha mineral elementlarni ildiz orqali tuproqdan qabul qiladilar. Mineral moddalar tuproq eritmasida, chirindida, organik va anorganik birikmalar tarkibida va tuproq kolloidlariga adsorbsiyalangan holatda uchraydi. Ionlarning uzlashtirilishi faqat o'simliklarga bog'liq bo'lmay, balki shu ionning tuproqdagagi konsentratsiyasiga, uning tuproqdagagi siljishiga va tuproq reaksiyalariga bog'liq. O'simliklar tanasidagi elementlarning 95 foizini turtta element: uglerod, vodorod, kislorod va azot tashkil etadi. Bu elementlar organogenlar ham deyiladi. Chunki ular usimlik tanasidagi organik moddalarning (oqsillar, yog'lar, uglevodlar) asosini tashkil etadi.

Mineral elementlar o'simliklar tanasidagi miqdori asosida uch guruxga bo'linadi: 1)makroelementlar; 2)mikroelementlar; 3)ultramikroelementlar. 1)Makroelementlarga o'simliklar tarkibidagi mikdori 10-2 foizni undan ko'p bo'lgan barcha elementlar (N, P, K, Ca, Na, Mg) kiradi.

2)Mikroelementlarga o'simliklar tarkibidagi miqdori 10-3 - 10-5 foiz bo'lgan elementlar (Mn, B, Cu, Zn, Mo va boshqalar) kiradi.

3) Ultramikroelementlarga o'simlik tarkibidagi juda oz (10-6 foiz va undan kam) va vazifasi aniqlanmagan (Ce, Se, Ca, Ng, Ag, Au va boshqalar) elementlar kiradi [6-15].

O'simliklarda biror bir mikroelementning etishmasligi, uni har xil bakterial, chirish va boshqa kasalliliklar bilan zararlanishiga olib keladi, ya'ni mikroelementlar qishloq xo'jalik ekinlarini turli xil kasalliklarga bo'lgan chidamlilagini oshiradi. Ayniqsa, mikroelementlar o'simliklarni tashqi muhitning noqulay ta'siriga (sovujqa, yuqori haroratga, tuproqlarni sho'rlanishi va qurg'oqchilikka) qarshi tura olish qobiliyatini oshiradi. Shuning uchun ham, o'simliklarni normal oziqlanishida ayrim mikroelementlarning ahamiyatini, ularning tuproqdagi shakllarini va o'simliklarni qaysi rivojlanish fazalarida qanday turlarini ko'plab o'zlashtirishini biliш kerak. [6-15].

NATIJALARINI MUHOKAMA QILISH

Inula helenium L o'simligini ildizi tarkibidagi mineral elementlar miqdorini aniqlashda «Rentgenoflyuretsentli spektrometriya usuli yordamida Spectro Xepos 111 (SShA) qurilmasida aniqlandi. Qurilmaning texnik kursatkichlari: Kuchlanishi 120/230 V, Quvvati 150 Vt ga ega bo'lgan uskuna. yordamida amalga oshirildi. Buning uchun o'simlik ildizi maydalanim poroshok holga keltiriladi va Rentgenografik taxlil uchun maxsus idishchalarga 5 gr tortib olinadi va aylana shakiliga ega bo'lgan disikga alohida urnatilgan idishchalarga *Inula helenium L* o'simligini ildizi poroshogi joylashtiriladi. Qurilma 20 daqiqa davomida taxlil qiladi. Natijalarini taxlil tugagach. Kurilmaga ulangan kompyuter orkali natijalar avtomatik tarzda ekranga beriladi. *Inula helenium L* o'simligini ildizi tarkibidagi makro va mikro elementlar mikdorini aniqlash natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval *Inula helenium L* o'simligini ildizi tarkibidagi makro va mikro elementlar mikdori



11/5/20

Sample Name	Method	4 (2) TC Powders and liquids F (A)	Dilution Material	-
Sample Folder	October 2020	Sample Mass	5.0000	
Sample Status	Powder	Dilution Mass	-	
Operator	AA XXXXX Admin User	Mixing Time	-	
		Evaluation Date	10/22/2020 12:26 PM	
		Analysis Date	10/22/2020 12:26 PM	
Results - 4 (2)				
The error is the statistical error with 1 sigma confidence interval				
Element		Concentration	Abs. Error	
8 O	Oxygen	-	-	-
9 F	Fluorine	-	-	-
11 Na	Sodium	-	-	-
12 MgO	Magnesiumoxide	< 0.0061 %	0.014	
12 Mg	Magnesium	< 0.0037 %	0.0077	
13 Al ₂ O ₃	Aluminumoxide	1.188 %	0.008	
13 Al	Aluminum	0.845 %	0.004	
14 SiO ₂	Siliconoxide	2.467 %	0.0013	
14 Si	Silicon	1.153 %	0.00055	
15 P ₂ O ₅	Phosphorusoxide	0.1758 %	0.0014	
15 P	Phosphorus	0.07673 %	0.0002	
16 SO ₃	Sulfideoxide	0.5100 %	0.0005	
16 S	Sulfur	0.062 %	0.0001	
17 Cl	Chlorine	0.0073 %	0.00026	
19 K ₂ O	Potassiumoxide	1.866 %	0.001	
19 K	Potassium	1.549 %	0.0001	
20 CaO	Calciumoxide	0.8164 %	0.0007	
20 Ca	Calcium	0.5835 %	0.0005	
21 Sc	Scandium	0.00214 %	0.000088	
22 Ti	Titanium	0.0028 %	0.0001	
23 V	Vanadium	0.0040 %	0.0002	
24 Cr	Chromium	0.00032 %	0.00001	
25 MnO	Manganeseoxide	0.00643 %	0.00002	
25 Mn	Manganese	0.00498 %	0.00001	
26 Fe ₂ O ₃	Ironoxide	0.1963 %	0.0005	
26 Fe	Iron	0.1373 %	0.0003	
27 Co	Cobalt	< 0.0009 %	0.00002	
28 Ni	Nickel	0.0072 %	0.00002	
29 Cu	Copper	0.00128 %	0.00002	
30 Zn	Zinc	0.00144 %	0.00001	
31 Ga	Gallium	0.000035 %	0.000003	
32 Ge	Germanium	0.000010 %	0.000005	
33 As	Arsenic	0.00011 %	0.00001	
34 Se	Selenium	0.000011 %	0.000004	
35 Br	Bromine	0.00018 %	0.00001	
37 Rb	Rubidium	0.00105 %	0.00001	
38 Sr	Strontium	0.00269 %	0.00001	
39 Y	Yttrium	0.00016 %	0.00001	
40 Zr	Zirconium	0.00069 %	0.00001	
41 Nb	Niobium	0.00014 %	0.00002	
42 Mo	Molybdenum	0.00008 %	0.00002	
43 Tc	Technetium	-	-	

44	Ru	Ruthenium	< 0.00002	%	-
45	Rh	Rhodium	< 0.00001	%	-
46	Pd	Palladium	< 0.00018	%	-
47	Ag	Silver	< 0.00002	%	-
48	Cd	Cadmium	< 0.00016	%	-
49	In	Indium	< 0.00003	%	-
50	Sn	Tin	0.00039	%	0.00008
51	Sb	Antimony	< 0.00004	%	-
52	Te	Tellurium	0.00022	%	0.00010
53	I	Iodine	0.00063	%	0.00028
55	Cs	Cesium	< 0.00023	%	-
56	Ba	Barium	0.00250	%	0.00022
57	La	Lanthanum	0.00037	%	0.00026
58	Ce	Cerium	0.00110	%	0.00019
59	Pr	Praseodymium	< 0.00066	%	-
60	Nd	Neodymium	< 0.00015	%	-
62	Sm	Samarium	0.00014	%	0.00002
63	Eu	Europium	-	-	-
64	Gd	Gadolinium	-	-	-
65	Tb	Terbium	-	-	-
66	Dy	Dysprosium	-	-	-
67	Ho	Holmium	-	-	-
68	Er	Erbium	-	-	-
69	Tm	Thulium	-	-	-
70	Yb	Ytterbium	< 0.00020	%	-
71	Lu	Lutetium	-	-	-
72	Hf	Hafnium	< 0.00007	%	-
73	Ta	Tantalum	< 0.00001	%	-
74	W	Tungsten	0.00005	%	0.00002
75	Re	Rhenium	-	-	-
76	Os	Osmium	-	-	-
77	Ir	Iridium	-	-	-
78	Pt	Platinum	-	-	-
79	Au	Gold	< 0.00001	%	-
80	Hg	Mercury	< 0.00001	%	-
81	Tl	Thallium	< 0.00002	%	-
82	Pb	Lead	0.00019	%	0.00001
83	Bi	Bismuth	< 0.00003	%	-
84	Po	Polonium	-	-	-
85	At	Astatine	-	-	-
90	Th	Thorium	0.000046	%	0.000004
91	Pa	Protactinium	-	-	-
92	U	Uranium	0.00013	%	0.00001
93	Np	Neptunium	-	-	-
94	Pu	Plutonium	-	-	-
95	Am	Americium	-	-	-

2 / 2



Inula helenium L o'simligini ildizi tarkibidagi element va uning birikmasi miqdori aniqlanib, ildizi tarkibidagi asosan Alyuminiy oksidi Al_2O_3 (1,598 %), Alyuminiy Al (0,8455 %), Kremniy oksidi SiO_2 (2,467 %), Kremnyi Si (1,153 %), Kalsiy oksidi CaO (0,8164 %), Kalsiy Ca (0,5835 %), Kaliy oksidi K_2O (1,866 %), Kaliy K (1,549 %), elementlari va uning birikmalari miqdori boshqalariga nisbatan ko'pligi ma'lum bo'ldi.

XULOSA

Inula helenium L o'simligini ildizi tarkibidagi mineral elementlar miqdorini aniqlashda «Rentgenoflyuretsentli spektrometriya usuli yordamida Spectro Xepos 111 (SShA) qurilmasida aniqlandi. *Inula helenium* o'simligi ildizi tarkibida. Boshqa elementlarga nisbatan Alyuminiy oksidi, Alyuminiy, Kremniy oksidi, Kremny, Kalsiy oksidi, Kalsiy, Kaliy oksidi, Kaliy, elementlari va uning birikmalari miqdori boshqalariga nisbatan ko'pligi ma'lum bo'ldi.

ADABIYOTLAR

1. Dudchenko L. G., Kozyakov A. S., Krivenko V. V. Pryano-aromaticheskie i pryanovkusovye rasteniya: Spravochnik / Otv. red. K. M. Syltnik. K.: Naukova dumka, 1989.
2. Universalnaya ensiklopediya lekarstvennykh rasteniy / sost. I. N. Putyrskiy, V. N. Proxorov. M.: Maxaon, 2000
3. Gubanov I. A. i dr. 1380. Inula helenium L.Devyasil высокий // Illyustrirovannyy opredelitel rasteniy Sredney Rossii. V 3 t.M.: T-vo nauch. izd. KMK, In-t texnolog. issl., 2004
4. Farmakognoziya (H.Xolmatov, O'.Ahmedov) Abu Ali ibn Sino Toshkent 1997.
5. X.X.Xolmatov, O'.A.Ahmedov, Farmakognoziya: darslik, Toshkent, Ibn Sino nomidagi NMB, 1995.
6. Xujaev J.X. O'simliklar fiziologiyasi. Toshkent mehnat 2004 y. B 118-156.
7. Islomov A.X., JalmurodovaD.D., Xushvaqova M.A., Xushvaqtov A.A., Ishmuratova A.S.// Zingiber officinale rose (dorivor zanjabil) o'simligi ildizining mikro va makroelementlar tarkibini aniqlash // O'zMU Kime fakul'teti kimyoning dolzarb muommolari Toshkent., 2021yil 4-5 fevral. B. 328-329
8. Islamov A.X., Matyoqubov A., Qurbanova A.Dj., Komilov.Q.O'. // Zingiber Officinale Rose o'simligi tarkibidagi mikro va makroelementlari mikdorini aniqlash va kullanish soxalarini o'rGANISH// ARES, Academic Research In Educational Sciences Volume 2. Issue 4. 2021\03. ISSN:2181-1385. Sceintific Journal impact Factor (SJIF) 2021:5.723. B.562-570.
9. Vysotskiy V.A., Tarashvili E.T. Mikrorazmnojenie zdorovogo posadochnogo materiala yagodnykh kultur. – Sadovodstvo, 1982, №3.
- 10.Golodriga P.YA., Zlenko V.A., Butenko R.G., Levenko B.A. Uskorennoe razmnojenie sennyykh gepotipov vinograda. Sadovodstvo, 1982, №3.
- 11.Kataeva N.V., Avetisov V.A. Klonalnoe razmnojenie rasteniy v kulture tkani. Kultura kletok rasteniy. M.: Nauka, 1981.
- 12.Litvak A.I., Kuzmenko A.P. Kultura kletok, tkaney i organov vinograda in vitro. – V sb.: Seleksiya ustovchivix sortov vinograda. Kishinev: SHtiinsa, 1982.
- 13.O'. Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov. Dorivor o'simliklar va ularni o'stirish texnologiyasi. Toshkent - 2008. B. 164
- 14.Islomov A.X., Ishmuratova A.S., Jalmurodova D.D. //Zingiber Officinale Rose o'simligini ildizi tarkibidagi makro va mikro elementlar miqdori tibbiyotda qo'llanilishi. // AIP Publishing ICPPMS-2021 y.B.
- 15.Islomov A.X., Ishmuratova A.S., Xushvaktov.A.A., Xushvakova.M.A. // Semina nigelli o'simligini o'rUG'i tarkibidagi makro va mikroelementlar miqdorini aniqlash. // Academic research in educational sciences 2021 y . B.71-79.